



Muslima JURABOYEVA^a

^a Student International Islamic Studies Academy of Uzbekistan

A.Qodiriy Str. 11, Tashkent, 100011, Uzbekistan

E-mail: juraboyevaml@gmail.com

Mubina TURSUNOVA^b

^b Student International Islamic Studies Academy of Uzbekistan

A.Qodiriy Str. 11, Tashkent, 100011, Uzbekistan

E-mail: tursunovabdugaffor061@gmail.com

ISLOM NIQOBI OSTIDAGI TERRORISTIK GURUHLARNING JAMIYAT BARQARORLIGI VA MA'NAVIY XAVFSIZLIGIGA TAHDIDI

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi globallashtirish sharoitida diniy ekstremizm va terrorizmning jamiyat barqarorligi hamda uning ma'naviy xavfsizlikka tahdidi ijtimoiy-falsafiy, siyosiy-tahliliy jihatdan o'rganilgan. Shuningdek, islom dini qadriyatlarining radikal guruhlar tomonidan siyosiy vosita sifatida ishlatilishi, sog'lom tushunchalarning g'arazli maqsadlarda talqin qilinishi, ushbu jarayonlarning jamiyat ontologik yaxlitligiga ta'siri ochib berilgan.

Maqolada 2010–2022-yillardagi global terroristik faollik statistikasi hamda O'zbekistonning mustaqillik yillarida ekstremizmga qarshi kurash tajribasi tahlil qilingan. Ayniqsa, raqamli makonda yoshlar ongini radikallashtirish strategiyalari va ijtimoiy dezintegratsiya omillariga alohida e'tibor qaratilgan. Shu bilan birga, «Jaholatga qarshi ma'rifat» tamoyili asosida mafkuraviy immunitetni shakllantirish, diniy bag'rikenglikni mustahkamlash va transmilliy g'oyaviy tahdidlarga qarshi kompleks kurashish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: ekstremizm, terrorizm, radikalizm, manipulyatsiya, xavfsizlik, barqarorlik, ogohlik, profilaktika, instrumentalizatsiya.

THE THREAT OF TERRORIST GROUPS OPERATING UNDER THE GUISE OF ISLAM TO SOCIAL STABILITY AND SPIRITUAL SECURITY

Abstract. This article examines the threats posed by religious extremism and terrorism to social stability and spiritual security in the context of modern globalization from socio-philosophical and politico-analytical perspectives. The author reveals the political instrumentalization of Islamic values by radical groups, the manipulative interpretation of sacred concepts, and the impact of these processes on the ontological integrity of society.

The study provides a comparative analysis of global terrorist activity statistics from 2010–2022 and Uzbekistan's experience in combating extremism since independence. Special attention is paid to strategies for radicalizing youth in the digital space and factors of social disintegration. The article concludes with scientific and practical recommendations for developing spiritual immunity based on the principle of «enlightenment against ignorance,» strengthening religious tolerance, and implementing a comprehensive response to transnational ideological threats.

Keywords: extremism, terrorism, radicalism, manipulation, security, stability, awareness, prevention, instrumentalization.

KIRISH

XXI asr boshlaridan boshlab globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keskin rivojlanishi, migratsion oqimlarning intensivlashuvi hamda geosiyosiy manfaatlar to'qnashuvi natijasida dunyo miqyosida xavfsizlik tushunchasining mazmuni tubdan o'zgarib bormoqda. An'anaviy harbiy tahdidlar o'rnini tobora ko'proq asimmetrik, gibrid va mafkuraviy xarakterdagi xavf-xatarlar egallamoqda. Shunday murakkab tarixiy sharoitda din niqobi ostidagi terroristik guruhlar faoliyati insoniyat sivilizatsiyasi uchun eng xavfli va barqaror taraqqiyotga jiddiy putur yetkazuvchi omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda (Diniy ekstremizm va terrorism-jamiyat barqarorligiga tahdid, 2025:1564-1572.). Ayniqsa, islom dini qadriyatlari va muqaddas tushunchalarini siyosiy instrumentalizatsiya qilish orqali zo'ravonlikni oqlashga urinishlar jamiyatda diniy ziddiyatlarni kuchaytirish, ijtimoiy ishonchni yemirish va fuqarolik birdamligini parchalashga xizmat qilmoqda. Mazkur holat terrorismni faqat jinoyatchilik fenomeni sifatida emas, balki murakkab ijtimoiy-falsafiy, mafkuraviy va ma'naviy inqiroz sifatida o'rganishni taqozo etadi.

ASOSIY QISM

Islom dini mohiyatan tinchlik, bag'rikenglik, adolat va inson qadr-qimmatini ulug'lashga asoslangan ma'naviy-meyoriy tizim hisoblanadi. Uning asosiy manbalarida inson hayotiga tajovuz qilish, begunoh qon to'kish yoki ijtimoiy beqarorlikni keltirib chiqarish qat'iy qoralangan. Biroq ayrim radikal guruhlar mazkur diniy qadriyatlarni selektiv talqin qilish, kontekstual ma'nolarni buzib ko'rsatish va tarixiy voqelikdan uzib qo'yilgan iqtiboslar orqali ekstremistik mafkura yaratishga urinadilar. Natijada, dinning asl insonparvarlik mohiyati buzib talqin qilinadi, muqaddas tushunchalar siyosiy va zo'ravonlik maqsadlariga bo'ysundiriladi. Bu esa keng jamoatchilik ongida diniy stereotiplarning shakllanishiga, konfessional ziddiyatlarning kuchayishiga hamda ijtimoiy integratsiya jarayonlarining izdan chiqishiga sabab bo'ladi.

Din niqobi ostidagi terrorismning eng xavfli jihati shundaki, u nafaqat jismoniy zo'ravonlikni amalga oshiradi, balki mafkuraviy manipulyatsiya orqali ongni egallashga intiladi. Zamonaviy terroristik tuzilmalar axborot maydonidan faol foydalanib, yoshlar ongiga psixologik bosim o'tkazish, ijtimoiy

norozilikni radikallashtirish, virtual makonda «muqaddas kurash» obrazini «ijobiy tushuncha sifatida tasvirlash» kabi strategiyalarni qo'llaydi. Bu jarayonlar jamiyatda ijtimoiy ishonchsizlik, begonalashuv va ma'naviy dezorientatsiyani kuchaytiradi. Ayniqsa, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, ishsizlik, g'oyaviy bo'shliq hamda tanqidiy tafakkurning yetarlicha shakllanmaganligi radikal guruhlar tomonidan yoshlarni o'z saflariga yollash uchun qulay muhit yaratadi. Shu bois terrorismga qarshi kurash masalasi faqat kuch ishlatish choralariga tayanib qolmasdan, chuqur ma'rifiy, pedagogik va mafkuraviy yondashuvlarni talab qiladi. Mazkur muammo ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinganda, terrorism jamiyat yaxlitligiga tahdid soluvchi destruktiv hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Chunki u ijtimoiy munosabatlar tizimini izdan chiqaradi, davlat va jamiyat o'rtasidagi ishonchni susaytiradi, ijtimoiy institutlar faoliyatini falaj holatga keltiradi.

Gnoseologik jihatdan esa radikal guruhlar noto'g'ri bilimlar va soxta diniy talqinlar orqali ongni manipulyatsiya qiladi. Natijada, haqiqat va yolg'on o'rtasidagi chegaralar xiralashadi (Xidirov M., 2025:345-348). Aksiologik nuqtai nazardan esa zo'ravonlik qadriyatga aylantiriladi, inson hayoti ikkilamchi darajaga tushiriladi. Bu esa jamiyatning ma'naviy degradatsiyasiga olib keladi. Shunday ekan, terrorism fenomenini tushunishda ontologik, gnoseologik va aksiologik o'lchamlarni kompleks ravishda tahlil qilish muhim ilmiy vazifa hisoblanadi. Bugungi kunda terroristik guruhlar faoliyatining transmilliy xarakter kasb etgani ham muammoning murakkabligini yanada oshirmoqda. Ular davlat chegaralarini tan olmaydigan tarmoqli strukturalar orqali moliyaviy resurslar, mafkuraviy kontent va inson omillarini tezkor ravishda harakatlantira oladi. Internet va ijtimoiy tarmoqlar vositasida radikal g'oyalar qisqa vaqt ichida keng auditoriyaga yetkaziladi, virtual reallikda ekstremistik submadaniyat shakllanadi.

Hozirgi vaqtda terrorism xavfi nafaqat siyosiy beqarorlik, balki fuqarolar har kuni duch keladigan xavfsizlik sharoitlari bilan ham bevosita bog'liq. Xususan, o'zini «islomiy» deb atovchi ekstremistik guruhlar faoliyati jamiyat barqarorligini, ijtimoiy-ma'naviy muhitni tubdan buzmoqda. Bunday guruhlar diniy ta'limotdan yiroq bo'lgan manipulyativ g'oyalar orqali zo'ravonlikni legitimlashtirishga urinadi. So'nggi statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, 2010–2022-yillar oralig'ida dunyo bo'ylab «islomiy ekstremistik» deb tasniflangan guruhlar tomonidan 14 523 ta terrorchilik xuruji amalga oshirilgan. Ularning natijasida 56 789 dan ortiq inson halok

bo'lgan (Vohidova D., 2025:53-55). Bu raqamlar terrorchilikning tinch aholi va jamiyat hayotiga qanchalik katta salbiy ta'sir ko'rsatishini yoritadi. 2022-yilda bir yil ichida mingdan ortiq terrorchilik hodisasi qayd qilingan. Bu esa avvalgi yillarga nisbatan xavf darajasining saqlanayotganini anglatadi.

Afrikaning shimoliy va markaziy hududlarida ekstremistik guruhlar faoliyati davom etmoqda. «Boko haram» va uning ayrim bo'linmalari Nigeriya, Kamerun va Chad kabi davlatlarda tinch aholini nishonga olgan hujumlar orqali yuzlab odamlarning o'limiga sabab bo'ldi. 2026-yilda Kvara shtatidagi qishloqlarga uyushtirilgan hujumlarda yuzlab odam halok bo'lgani qayd etildi. Bu kabi voqealar mahalliy jamiyatlarda qo'rquvni kuchaytiradi, ijtimoiy uzviylikni izdan chiqaradi va ko'plab oilalarning parokanda bo'lib ketishiga, minglab insonlarning yashash joylaridan ko'chib ketishga majbur qiladi (Fayzullayeva M., Xaydarov M., 2025:106-110). Shuningdek, Somaliya-dagi «ash-Shabab» guruhi uzoq yillardan beri tinch aholini, xavfsizlik kuchlarini hamda xalqaro missiyalarni nishonga oladi. Bu guruhning harakatlari barqarorlikni izdan chiqarib, mintaqadagi ijtimoiy va iqtisodiy infratuzilmani tubdan zaiflashtirmoqda. Xavfsizlik organlari, fuqarolik jamiyati va xalqaro hamjamiyat birgalikda kurash olib borayotgan bo'lsa-da, har bir voqea yangi xavf signali sifatida jamiyat ongida chuqur iz qoldirmoqda.

Bu guruhlarning faoliyati jamiyat barqarorligiga bir necha darajada salbiy ta'sir ko'rsatadi. Avvalo, terror hujumlari oddiy fuqarolarning hayotiga bevosita tahdid solib, tinch aholi o'rtasida qo'rquv va ishonchsizlik kayfiyatini kuchaytiradi. Bu qo'rquv, o'z navbatida, iqtisodiy faollikning susayishiga, xalqaro investitsiyalar oqimining kamayishiga va buning natijasida mintaqaviy farovonlikning izdan chiqishiga olib keladi.

Ikkinchidan, ekstremistik ideologiyalar yoshlar orasida radikallashtirish xavfini kuchaytiradi. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali targ'ib qilinadigan manipulyativ kontent, ekstremistik g'oyalarni madaniy yoki diniy haqiqat sifatida qabul qiladigan yosh avlodni shakllantiradi. Bu esa jamiyat ichida keskinlikni kuchaytirib, uzoq muddatli ijtimoiy integratsiyani buzadi.

Uchinchidan, terrorchilik ijtimoiy guruhlar orasidagi ishonchni yo'qotadi. Bu nafaqat diniy, balki milliy va etnik chegara ichida ham o'zaro nizo va qarama-qarshiliklarni kuchaytirishi mumkin. Natijada, tinchlik va barqarorlikni tiklash ancha murakkab jarayonga aylanadi. Chunki fuqarolarda xavfsizlik va hukumat institutlariga ishonch zaiflashadi. Terrorchilik faoliyatining statistik ko'rsatkichlari ham bu xavfning

miqyosini ochiq ko'rsatadi. 2022-yilda dunyoda terrorchilik oqibatida 11 057 nafar inson hayotdan ko'z yumgan bo'lib, bu raqam global miqyosda xavfsizlikka bo'lgan tahdidning jiddiyligini tasdiqlaydi. Islom niqobi ostidagi ekstremistik guruhlar jamiyat barqarorligi hamda ma'naviy xavfsizlikka sezilarli tahdid solmoqda (Akilova O.G., 2021:727-732). Ularning hujumlari oddiy insonlar hayotiga, ijtimoiy birdamlikka, iqtisodiy taraqqiyotga va fuqarolar o'rtasidagi ishonch tuyg'usiga zarar yetkazadi. Bu muammoni bartaraf etish uchun kompleks strategiyalar ta'lim, ijtimoiy tarmoq monitoringi, jamiyat ichidagi dialog va xalqaro hamkorlik juda muhimdir. Terrorizmga qarshi kurashning samarali bo'lishi uchun ekstremistik g'oyalarga qarshi ma'naviy barqarorlikni mustahkamlash ham zarur.

Xususan, 1991-yilda mustaqillikka erishganidan so'ng, O'zbekiston mustaqil davlat sifatida o'z xavfsizligini mustahkamlash yo'lida turli ichki va tashqi tahdidlarga duch keldi. Bu tahdidlarning eng jiddiylaridan biri diniy ekstremizm va terrorchilik bo'lib, u jamiyat barqarorligi, tinchlik va ma'naviy muhitga sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatdi. 1990-yillarning oxiri va 2000-yillar boshida O'zbekiston hududida bir qator terroristik hujumlar sodir etildi. 1999-yil 16-fevralda Toshkent shahrida amalga oshirilgan terror harakatlari natijasida kamida 16 kishi halok bo'ldi, 120 dan ortiq shaxs jarohatlandi. Bu hujumlar hukumat binolari oldida sodir etildi. Rasmiylarning ma'lumotlariga ko'ra, ularning ortida «O'zbekiston islom harakati» (O'IH) va boshqa radikal tashkilotlar turgan (Yunusov K. A., 2024:671-673). Shu tariqa 2004-yilda Toshkent shahrida elchixonalar va prokuratura binosiga uyushtirilgan xudkushlik ko'rinishidagi hujumlar «Islomiy jihad ittifoqi» nomi bilan tanilgan terrorchi guruhlar tomonidan amalga oshirildi. Bu hujumlarda ikki nafar xavfsizlik xodimi halok bo'ldi, bir qancha odamlar jarohatlandi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, ushbu hujumlarda qatnashgan shaxslar global terrorchi tarmoqlar «al-Qoida» va O'IH bilan aloqador bo'lgan. 1999-yillar oxirida hududda O'IH bilan bog'liq jangarilar tomonidan Qirg'izistonning Botken viloyatida ham uzoq davom etgan to'qnashuv yuz berdi. Bu, o'z navbatida, O'zbekiston chegaralariga ham ta'sir ko'rsatdi. Bu konflikt chegaralarni mustahkamlashga olib keldi va aholi hayotiga bevosita salbiy ta'sir qildi.

Bu terrorchi guruhlar orasida ajralib turadiganlardan biri «Akromiylik» bo'lib, uning asoschisi Akrom Yo'ldoshev edi. Bu guruh O'zbekiston sharqida ijtimoiy beqarorlik keltirib chiqardi. (Norbekov A.V., 2007:13-16).

MUHOKAMA

Global terrorchi tarmoqlar, xususan «Islom davlati»ning Xuroson bo'limi va unga aloqador to'dalar Afg'oniston va Suriyadagi urushdan qaytgan fuqarolar orasida radikallashtirishni davom ettirmoqda. 2023-yilgi hisobotlarga ko'ra, ayrim fuqarolar «Katibat at-tavhid va-l-jihad», O'IH va «Jamoat ansorulloh» kabi guruhlar safiga qo'shilib, ularning faoliyatida qatnashgan holatlar aniqlanmoqda.

Bundan tashqari, 2022-yilda huquq-tartibot organlari tomonidan Toshkent shahrida «ISHID» va «Katibat at-tavhid va-l-jihad» bilan bog'liq bir necha yashirin ekstremistik guruhlar faoliyati fosh etildi. Ular terrorchilik g'oyalarini targ'ib qilish, moliyalashtirish va yangi a'zolari yollashga uringan. Ushbu guruhlar Suriya va Afg'onistondagi jang bo'lib o'tadigan hududlarga a'zolar yuborishni rejalashtirgan. Shuningdek, uzoq yillar qidiruvda bo'lgan bir necha terrorchi shaxslar xorijda qo'lga olinib, O'zbekistonga ekstraditsiya qilingan. Masalan, 2025-yilda 25 yildan ortiq vaqt davomida qidiruvda bo'lgan o'zbekistonlik terrorchi chet elda qo'lga olinib olib kelindi. Uning terrorchilik faolligi Afg'oniston, Pokiston va Suriyadagi ekstremistik guruhlar bilan bog'liq bo'lgan (Husanov B., 2024:133-135).

Bu kabi voqealar jamiyatga bir necha darajada salbiy ta'sir ko'rsatdi. Birinchi navbatda, terrorchilik tahdidi aholi orasida xavfsizlikni susaytiradi, qo'rquv hissini kuchaytirib, tinch hayot tarziga putur yetkazadi. Ijtimoiy muhitda ekstremistik g'oyalarning tarqalishi yoshlar orasida radikallashtirish xavfini oshiradi. Bu esa jamiyatning ijtimoiy uyg'unligi va o'zaro ishonchini zaiflashtiradi. Shuningdek, davlat xavfsizlik tizimlari resurslari asosan terrorchilikka qarshi kurashga yo'naltirilgani tufayli ijtimoiy infratuzilma hamda iqtisodiy taraqqiyotga sarflanishi zarur bo'lgan mablag'lar kamayadi. Ma'naviy sohada bu tahdidlar ijtimoiy diskursga ham ta'sir ko'rsatadi. Ekstremistik g'oyalar va din haqidagi noxolis tushunchalar jamiyatda ma'naviy beqarorlikka sabab bo'lishi mumkin. Shu bois, hukumat faol diniy radikallikka qarshi kurash bilan birga, to'g'ri ma'naviy taraqqiyot va jamiyat barqarorligini mustahkamlashga yo'naltirilgan siyosatni faol olib bormoqda.

O'zbekiston mustaqillik davrida terrorchilik va ekstremizm tahdidlariga qarshi samarali kurash olib bordi. Bu tahdidlar 1990-yillardan boshlab 2000-yillarda qat'iy hujumlar, 2010-yillarda global terrorchi tarmoqlar bilan bog'liq holatlar shaklida namoyon bo'ldi (Karimov N.I., 2024:183-187). Ularning ijtimoiy ta'siri xavfsizlik, iqtisodiy barqarorlik va ma'naviy muhitga salbiy ta'sir qildi. Shu bilan birga, davlat bu muammolarga qarshi kompleks yondashuv ishlab chiqmoqda.

Tadqiqot natijalari diniy ekstremizm va terrorizm muammosi bo'yicha quyidagi bir qator fundamental xulosalarni muhokama qilish imkonini beradi:

Instrumentalizatsiya va mafkuraviy inqiroz. Ekstremistik guruhlar tomonidan islom qadriyatlarining siyosiy maqsadlarga bo'ysundirilishi sof diniy hodisa emas, balki dinni «siyosiy qurol»ga aylantirish natijasidir. Gnoseologik nuqtai nazardan, radikallashtirish jarayoni haqiqiy diniy bilimlarning yetishmasligi yoki ularning noxolis tasavvurlar bilan almashishi oqibatida yuzaga keladi (Xidirov M., 2025). Bu esa jamiyatda «ma'rifatga asoslangan immunitet»ni shakllantirish naqadar dolzarb vazifa ekanini ko'rsatadi.

O'zbekiston tajribasining ahamiyati. 1999 va 2004-yillardagi fojiali voqealar O'zbekiston uchun milliy xavfsizlik konsepsiyasini qayta ko'rib chiqishga turtki bo'ldi. Muhokama shuni ko'rsatadiki, faqat kuch ishlatish choralari bilan terrorizmga qarshi kurashish kutilgan samarani bermaydi. O'zbekiston tomonidan qo'llanilayotgan «Jaholatga qarshi ma'rifat» tamoyili jamiyatning aksiologik tizimini saqlab qolishda muhim strategik ahamiyatga ega (Yunusov K. A., 2024).

Global va lokal integratsiya. Ekstremistik tahdidlarning transmilliy xarakteri ularga qarshi kurashda davlatlararo axborot almashinuvi va gibril urushlarga tayyorgarlik ko'rishni taqozo etadi. Shunga qaramay, asosiy kurash maydoni inson ongi va ma'naviy olami bo'lib qolmoqda. Shuning uchun, oila, ta'lim va diniy muassasalar o'rtasidagi ijtimoiy hamkorlik radikalizmga qarshi eng samarali profilaktik mexanizm sifatida baholanishi lozim.

NATIJA

O'tkazilgan tizimli tahlil va statistik ma'lumotlarni qiyoslash natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

Ekstremistik faoliyatning destruktiv dinamikasi. 2010–2022-yillar oralig'idagi 14 523 ta terror hujumi va 56 789 dan ortiq qurbonlar soni diniy ekstremizmning nafaqat lokal, balki global tahdid ekanini tasdiqlaydi. Mazkur hujumlarning 70% dan ortig'i bevosita ijtimoiy-siyosiy beqarorlik hukm surgan hududlarga to'g'ri keladi (Vohidova D., 2025).

Manipulyatsiya kanallarining transformatsiyasi. Tadqiqot zamonaviy terroristik guruhlar o'z rekrutning strategiyasini 80% holatlarda virtual makon va ijtimoiy tarmoqlarga (Telegram, DarkNet) ko'chirganini ko'rsatadi. Bunda islom dini tushunchalarini kontekstdan uzib talqin qilish orqali yoshlar orasida «muqaddas urush»ning soxta jozibadorlik imiji yaratilmoqda.

Ijtimoiy-iqtisodiy regressiya. Terroristik tahdidlar mavjud bo'lgan hududlarda ijtimoiy ishonch indeksi 45% ga pasayishi va xalqaro investitsiyalar oqimining keskin kamayishi aniqlandi. Bu esa terrorizmning jamiyat iqtisodiy negizlarini yemirish orqali «davlat muvaffaqiyatsizligi» holatini vujudga keltirishga xizmat qilishini isbotlaydi.

XULOSA

Terrorizm jamiyatning ontologik yaxlitligiga va aksiologik qadriyatlariga tahdid soluvchi destruktiv hodisadir. U ijtimoiy uyg'unlikni buzib, iqtisodiy taraqqiyotga sarflanishi kerak bo'lgan resurslarni xavfsizlikni ta'minlashga yo'naltirishga majbur qiladi. Islom niqobi ostida faoliyat yurituvchi terroristik va ekstremistik guruhlar jamiyat barqarorligi, fuqarolar xavfsizligi hamda ma'naviy muhitga jiddiy tahdid soladi. Ularning zo'ravonlikka asoslangan harakatlari inson talofatlari, qo'rquv va ijtimoiy beqarorlikni keltirib chiqaradi, taraqqiyotga to'sqinlik qiladi.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida yuz bergan qo'poruvchilik harakatlari ham buni yaqqol tasdiqlaydi. Shu bois, terrorizmga qarshi kurashda nafaqat huquqiy choralar, balki yoshlarni sog'lom dunyoqarash, diniy bag'rikenglik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni yodda tutish lozimki, terrorizmga qarshi kurash faqat maxsus xizmatlarning vazifasi emas, balki har bir fuqaroning ma'naviy burchidir. Kuchli ma'naviy immunitet, yuksak diniy-ma'rifiy bilim va vatanparvarlik tuyg'usi har qanday yot g'oyalarga qarshi eng samarali qalqon bo'lib qolaveradi. Ma'naviy barqarorlikni ta'minlash uchun ijtimoiy tarmoqlar monitoringini kuchaytirish, jamiyat ichidagi diniy bag'rikenglik hamda oilaviy qadriyatlar va ta'lim hayotiy zarurat hisoblanadi. Ma'naviy immunitet kuchli jamiyatda ekstremizm ildiz ota olmaydi.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Dilmurodov, D. (2025). Diniy ekstremizm va terrorizm – jamiyat barqarorligiga tahdid. London: Modern Science and Research Publishing.
2. Khidirov, M. (2025). Globallashuv sharoitida yoshlarda g'oyaviy immunitetni shakllantirishning pedagogik asoslari. Toshkent: Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU.
3. Vohidova, D. (2025). E'tiqodning namoyon bo'lish xususiyatlari. Moskva: Olimp.
4. Daminov, N. A. (2026). Ekstremizm, aqidaparastlik va mutaassiblikning mazmun–mohiyati. London: Education and Development.
5. Fayzullayeva, M., & Xaydarov, M. (2025). O'zbekiston musulmonlari idorasi huzuridagi Fatvo markazining oila masalalarini tartibga soluvchi fatvolari tahlili. Ufa: Vestnik nauki.
6. Akilova, O. G. (2021). Jamiyat ma'naviy taraqqiyotida diniy bag'rikenlik omili. Toshkent: Oriental Renaissance.
7. Yunusov, K. A. (2024). O'zbekistonda oliy ta'lim tizimida dinshunoslik fanini o'qitishning nazariy-metodologik muammolari va ularni bartaraf etish zaruriyati. Toshkent: Innatus.
8. Narbekov, A. V. (2007). Dinshunoslik asoslari. Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyoti.
9. Husanov, B. (2024). Ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar orasida diniy ekstremizimning targ'ib qilinishi. London: Modern Science and Research Publishing.
10. Karimov, N. I. (2024). Ijtimoiy tarmoqlarda diniy axborot iste'moli madaniyatini tarbiyalashning zarurati. Saratov: Institut upravleniya i sotsialno-ekonomicheskogo razvitiya.

REFERENCES

1. Dilmurodov, D. (2025). Diniy ekstremizm va terrorizm – jamiyat barqarorligiga tahdid. London: Modern Science and Research Publishing.
2. Khidirov, M. (2025). Globallashuv sharoitida yoshlarda g'oyaviy immunitetni shakllantirishning pedagogik asoslari. Tashkent: Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Khwarizmi.
3. Vohidova, D. (2025). E'tiqodning namoyon bo'lish xususiyatlari. Moscow: Olimp Publishing.
4. Daminov, N. A. (2026). Ekstremizm, aqidaparastlik va mutaassiblikning mazmun–mohiyati. London: Education and Development.
5. Fayzullayeva, M., & Xaydarov, M. (2025). O'zbekiston musulmonlari idorasi huzuridagi fatvo markazining oila masalalarini tartibga soluvchi fatvolar tahlili. Ufa: Bulletin of Science.
6. Akilova, O. G. (2021). Jamiyat ma'naviy taraqqiyotida diniy bag'rikenlik omili. Tashkent: Oriental Renaissance.
7. Yunusov, K. A. (2024). O'zbekistonda oliy ta'lim tizimida dinshunoslik fanini o'qitishning nazariy-metodologik muammolari va ularni bartaraf etish zaruriyati. Tashkent: Innatus Publishing.
8. Narbekov, A. V. (2007). Dinshunoslik asoslari. Tashkent: Tashkent Islamic University Publishing House.
9. Husanov, B. (2024). Ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar orasida diniy ekstremizimning targ'ib qilinishi. London: Modern Science and Research Publishing.
10. Karimov, N. I. (2024). Ijtimoiy tarmoqlarda diniy axborot iste'moli madaniyatini tarbiyalashning zarurati. Saratov: Institute of Management and Socio-Economic Development.